

FRAZEOLOGIYANING LINGVISTIK ASOSLARI, STRUKTURASI VA FUNKSIYALARI

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Filologiya va tillarni o`qitish

(o`zbek tili) yo`nalishi 2- kurs talabasi

Abdullahayeva Dildora Bahrom qizi

dildor.abdullahayeva0812@gmail.com

+998930081208

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologiyaning nazariy asoslari, uning lingvistik tabiatini va tilshunoslikdagi o`rni chuqur tahlil qilinadi. Frazeologik birliklarning tarkibiy tuzilishi, ularning kelib chiqish manbalari va semantik xususiyatlari haqida ilmiy- nazariy qarashlar bayon etiladi. Shuningdek, frazeologizmlarning funksional ahamiyati, ularning nutqdagi stilistik vazifalari, adabiy va so`zlashuv nutqida qo`llanilishi ham tahlil qilinadi. Maqolada frazeoogiyaning boshqa lingvistik kategoriylar bilan bog`liqligi ham ko`rib chiqilib, uning tarjima jarayonidagi o`rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar: Frazeologiya, frazeologizm, semantika, turg`un birikmalar, majoziy ma`no, lingvistika, frazeologik birliklar, tarjima, stilistika.

Kirish

Til inson tafakkuri va madaniyatining eng asosiy ifoda vositasi bo`lib, undagi har bir birlik turli xil semantik va funksional xususiyatlarga ega. Tilda faqat alohida so`zlar emas, balki ma`no jihatidan yaxlit bo`lgan turg`un birikmalar ham keng qo`llaniladi. Ana shunday birliklar frazeologizmlar deb atalib, uar nutqning obrazlilagini oshirish, ekspressiv va emotsiyal ta`sirini kuchaytirish vazifalarini bajaradi. Frazeologiya lingvistik tadqiqotlarda muhim yo`nalishlardan biri bo`lib, uning asosiy obyekti – frazeologik birliklarning semantik, grammatik va funksional xususiyatlarini o`rganishdan iborat. Mazkur maqolada frazeologiyaning nazariy asoslari, turkumlanishi, funksional xususiyatlari, tarjima jarayonidagi o`rni va boshqa lingvistik tizimlar bilan aloqadorligi yoritiladi.

Frazeologiyaning nazariy asoslari

Frazeologiya mustaqil tilshunoslik sohasi sifatida XX asrning o`rtalaridan boshlab rivojlangan bo`lib, uning asosiy nazariy prinsiplari rus olimi V. V. Vinogradov tomonidan shakllantirilgan. Vinogradov frazeologizmlarning semantik tuzilishi va tarkibiy qismlari asosida ularni uch guruhga ajratgan:

1. Frazeologik birikmalar – tarkibiy qismlari nisbatan mustaqil bo`lib, lekin umumiyligi ma`nosi majoziy tus olgan iboralar. Masalan, ko`z ochib yumguncha (tezda), qo`l qovushtirib turmoq (harakat qilmaslik).

2. Frazeologik butunliklar- semantik jihatdan yaxlit bo`lib, ma`nosi tarkibiy qismlarining lug`aviy ma`nosidan kelib chiqmaydi. Masalan, og`zi qulog`ida (xursand), yuragi muzlab ketdi (qo`rqib ketdi).

3. Frazeologik yoysitmalar – xalq maqollari, hikmatli so`zlar va qanotli iboralar. Masalan, o`qilgan kitobga chang yo`q, Mehnat- baxt kaliti.

Frazeologizmlarning sintaktik jihatdan ham mustahkam birlik hisoblanib, ulardagi so`zlar o`z o`rnini o`zgartirganda yoki sinonim so`zlar bilan almashtirilganda, iboraning umumiyligi ma`nosi buziladi.

Frazeologizmlarning kelib chiqish manbalari

Ularning asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

6. Xalq og`zaki ijodi- xalq maqollari, hikmatli so`zlar, ertaklar va dostonlardan olingan iboralar. Masalan, yaxshilikka yaxshilik- har kimning ishi, yomonlikka yaxshilik- faqat mardning ishi.

7. Diniy manbalar- Qur`on va injil bilan bog`liq iboralar. Masalan, Ko`z ochib yumguncha(tezkorlik), Qiyomat qoyim bo`ldi (katta falokat yuz berdi).

8. Adabiyot va san`at- klassik adabiyot va teatr ijodidan kirib kelgan iboralar. Masalan, Hamletning dardi (ruhiy iztirobi).

Frazeologizmlarning funksional ahamiyati

Frazeologizmlar tildagi ekspressivlik va obrazlilik imkoniyatlarini kengaytiradi. Ularning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

a) Ekspressivlik va obrazlilik- majoziy iboralar nutqni ta`sirchan qiladi.

b) Qisqalik va lo`ndalik- fikrni qisqa va aniq yetkazishga imkon beradi.

c) Badiiylik va emotsiyonallik- adabiy asarlarda personajlarning xarakterini jonli tasvirlash imkonini beradi.

d) Milliy mantalitet va madaniyat aks etishi- xalq tafakkuti va madaniyati frazeologizmlar orqali ifodalanadi.

Frazeologizmlarning tarjimasи

Frazeologizmlarning tarjimasи juda murakkab jarayon bo`lib, u uch usulda amalga oshiriladi:

a) To`g`ridan- to`g`ri ekvivalent tarjima- adar ikki tilda bir xil ma`no va ifodaga ega ibora mavjud bo`lsa, uni bevosita tarjima qilish mumkin. Masalan, ingliz tilidagi Out of sight, out of mind iborasi o`zbek tiliga Ko`zdan uzoq, ko`ngildan uzoq deb tarjima qilinadi.

b) Tafsiriylar tarjima- agar ekvivalent topilmasa, frazeologizmlarning ma`nosi izohlanadi.

c) Analitik tarjima- ibora tarkibiy qismlarga ajratilib, unga mos ekvivalent tanlanadi.

Frazeologiya tilshunoslikning eng muhim va o`ziga xos sohalaridan biri bo`lib, u tilda ma`no yaxlitligini saqlagan turg`un birikmalarni o`rganadi. Frazeologik birliklar nafaqat lingvistik nuqtayi nazardan, balki madaniyat, tarix, psixologiya va tarjima masalalari bilan ham chambarchas bog`liq. Ushbu maqolada frazeologiyaning nazariy asoslari, kelib chiqish manbalari, lingvistik tuzilishi va funksional xususiyatlari batafsil tahlil qilinadi.

Frazeologizmlar nutqning obrazlilagini oshirish, ekspressiv ta`sirini kuchaytirish va qisqahamda lo`nda fikr ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular inson tafakkurining milliy xususiyatlarini aks ettirib, til va madaniyat o`rtasidagi mustahkam aloqani namoyon etadi. Shu boisdan, frazeologizmlar turli tillarda o`ziga xos shaklda namoyon bo`ladi, bu esa ularning tarjima jarayonini qiyinlashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, frazeologik birliklarning tarjimasi nafaqat leksik, balki stilistik va semantik yondashuvni talab qiladi.

Frazeologiyaning rivojlanishi zamonaviy lingvistika, texnologiya va ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog`liq. Bugungi kunda til doimiy ravishda o`zgarib, yangi iboralar va frazeologik birliklar shakllanmoqda. Shu bois, frazeologizmlarni o`rganish jarayonida ularning kelib chiqishini tarixiy, madaniy va mintaqaviy jihatdan o`rganish zarur. Ayniqsa, dialektologiya va sheva tadqiqotlari asosida o`zbek tilidagi turli hududiy frazeologik birliklarning farqlarini aniqlash muhimdir.

Bundan tashqari frazeologiyaning sun`iy intellekt va tarjima tizimlaridagi o`rni ham dolzarb masalalaridan biridir. Hozirda avtomatik tarjima tizimlari frazeologik birliklarni to`g`ri arjima qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa frazeologizmlarni sun`iy intellekt asosida chuqur o`rganishda maxsus tarjima modellarini ishlab chiqish zarurligini ko`rsatadi.

Frazeologik tadqiqotlarning yana bir yo`nalishi – ularning psixolingvistik va kognitiv jihatlarini o`rganishdir. Inson miyasi frazeologik birliklarni qanday eslaydi va ularni qachon ishlatadi? Bu savollarga javob topish tilshunoslik va psixologiya chorrahasida joylashgan muhim tadqiqot yo`nalishlaridan biridir.

Frazeologizmlarning ta`lim jarayonidagi o`rniga ham alohida e`tibor qaratish lozim. Hozirgi darsliklarda frazeologiyaga yetarli darajada o`rin ajratilmagan. Ularni zamonaviy o`qitish uslublari- animatsion videolar, interaktiv o`yinlar va elektron lug`atlar orqali o`rgatish talabetiladi.

Takliflar:

1. Frazeologizmlarning mashina tarjimasi va sun`iy intellekt bilan bog`lanishi. Hozirda avtomatik tarjima tizimlari (Google Translate, DeepL, ChatGPT va h.k) frazeologizmlarni to`g`ri tarjima qilishda muammolarga duch keladi. Frazeologik

birliklarning tarjimasini yanada mukammallashtirish uchun sun`iy intellektga asoslangan maxsus frazeologik tarjima modellarini yaratish mumkin. Bu orqali ikki til orasidagi majoziy iboralar aniq va stilistik jihatdan mos keladigan ekvivalent bilan berilishi mumkin.

2. Frazeologiyaning kinematografiya va ommaviy madaniyatdagi roli. Zamonaviy filmlar, seriallar va ijtimoiy tarmoqlarda frazeologizmlarning qo`llanilishi bo`yicha maxsus tadqiqotlar o`tkazish mumkin. Masalan, “Penthouse” kabi mashhur seriallardagi frazeologik birliklarni o`zbek tiliga tarjima qilish tajribasi qanday kichadi? Kinematografiya orqali frazeologik birliklarning ommaviy madaniyatga ta`siri o`rganilishi mumkin.

3. Frazeologizmlarning xalqaro taqqoslamasi va interaktiv lug`atlar yaratish. Frazeologik birliklarni xalqaro miqyosda taqqoslash va ularni maxsus interaktiv lug`atlar shaklida jamlash kerak. Masalan, ingliz, rus, koreys va o`zbek tillarida bir xil ma`noni anglatadigan frazeologizmlarni keltirib, ularning fonetik va semantik jihatdan farqlarini izohlash mumkin. Bunday lug`atlar nafaqat tilshunoslar, balki tarjimonlar, yozuvchilar va jurnalistlar uchun ham muhim qo`llanma bo`ladi.

4. Frazeologizmlar va ularning ta`lim jarayonida qo`llanilishi. O`zbek tilini o`rgatuvchi o`quv qo`llanmalar va darsliklarda frazeologizmlarga yetarlicha e`tibor qaratilmagan. Ularni dars jarayoniga qo`shish, animatsion videolar orqali tushuntirish, interaktiv o`yinlar yaratish orqali yosh avlodga oson va qiziqarli tarzda yetkazish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, frazeologiya nafaqat tilshunoslikning muhim qismi, balki xalq tafakkurining, madaniyati va tarixining ko`zgusidir. Uni chuqur o`rganish orqali biz nafaqat tilimizni, balki xalqimizning tafakkurini ham yanada kengroq tushunishimiz mumkin. Zamonaviy texnologiyalar, sun`iy intellekt, tarjima tizimlari va ta`lim jarayonlari bilan bog`langan holda frazeologiyaning kelajakdagи rivoji yangi yo`nalishlar va ilmiy izlanishlarga turtki bo`lishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Vinogradov V. V. Russkiy yazyk (Grammaticheskoe uchenie o slave). Moskva, 1972.
2. Kunin A. V. Angliyskaya frazeologiya- Moskva: Vysshaya shkola, 1984.
3. Bulaxov M. G. Frazeologiya I istoriya yazykov – Moskva: Nauka, 1990.
4. O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati- Toshkent: O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015.
5. G`ulomov H. O`zbek tilida frazeologik birlikarning tadqiqi- Toshkent, 2019.